



KUSHON DAVLATIDA DINIY TOLERANTLIK

Kuchimboyeva Marjona

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi 1-kurs 2-24-guruh talabasi

mkuchimboyeva@gmail.com

Abstract: This article focuses on the spread of the ideas of religious tolerance in the Kushan kingdom, the diversity of the kingdom, the rise of the ideas of tolerance to the level of state policy and the introduction of Buddhist in Central Asian cultural life, Buddhist settlements are mentioned.

Key words: Karatepa, Fayoztepa, Termiz, Dharmitra, Goshaka, Kanishka, Buddhism, fire worshiper, Surkhkotal.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda hukm surgan Kushon podsholigi davrida diniy bag'rikenglik g'oyalarining yoyilishi, podsholikning diniy hayotdagi turfa xillik bag'rikenglik g'oyalarini davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi hamda buddaviylik ta'limotini O'rta Osiyo madaniy hayotiga ta'siri, buddaviylik manzilgohlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Qoratepa, Fayoztepa, Termiz, Dxarmamitra, Gxoshaka, Kanishka, buddizm, otashparast, Surxko'tal.



Аннотация: В статье рассматривается распространение идей религиозной толерантности в Кушанский период, подъём идей толерантности на политический уровень и влияние буддизма на культурную жизнь Центральной Азии, упоминаются буддийские поселения.

Ключевые слова: Каратепа, Файозтепа, Термиз, Дхармитра, Гошака, Канишка, буддизм, огнепоклонник, Сурхкотал.

KIRISH. Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O'zbekiston azaldan o'z urf-odati, madaniyati, tili va turmush tarziga ega bo'lgan, turli e'tiqod vakillari va bir-biriga ma'naviy jihatdan yaqin bo'lmagan xalqlar yashagan zamindir. Millati va diniy qarashlaridan qat'iy nazar insonni ardoqlash va o'zgalarni qadrlash, o'zga din vakillarini hurmat qilish O'zbek xalqining yuksak sifatlaridir. Aynan ushbu omillar xalqimizning ruhiyatida diniy bag'rikenglik xususiyatini shakllanishiga asos bo'ldi. Bag'rikenglik g'oyalarini hayotga tadbiq etish uzoq moziyga borib taqaladi. Ajdodlarimiz amal qilgan diniy bag'rikenglik g'oyalari tarixning har bir davrida ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayotni ajralmas qismiga aylangan bo'lsada, tarixning ma'lum davrlarida o'zining eng yuqori pog'onasiga ko'tarilgan. Kushon podsholigi hukm surgan tarixiy davr fikrimizga yorqin misoldir.¹

ADABIYOTLAR TAHLILI. Bozorova Sevaraxon Qobiljonovna "Kushon podsholigi davrida diniy bag'rikenglik" maqolasida Kushon davlatining tashkil topishi, podsholarning yuritgan siyosatlari, davlat hududida tashkil topgan dinlar haqida ma'lumotlar uchraydi. Z.Husniddinovning "O'zbekistonda diniy bag'rikenglik" kitobida podsholikda bosh rolni kohin o'ynaganligi, Kashinkaning yuritgan siyosati, Hindistonning qo'shib olinishi, Hisor chegaralari, Baqtriya tili va hind tili muloqot tili bo'lganligi Kanishka bilan bog'liqligi e'tirof etilgan. Ata-Mirzayev, O.Gentshke, V.Murtazayevaning

¹ Bozorova Sevaraxon Qobiljonovna "Kushon podsholigi davrida diniy bag'rikenglik"



“Международная толерантность в Узбекистане: история и современность” kitobida Kushon podsholigi davrida bir hududda turli dinlar amalda bo’lgan saltanatda dinlar o’rtasida o’zaro tenglik siyosatini olib borib, Shahar aholisi podsholikning bag’rikenglik an’analariga muvofiq zardushtiylik, buddaviylik, manixiylik va boshqa dinlarga sig’inganligi haqida ma’lumot bor. Shokir Pidayevning “Sirli Kushon saltanati” asarida qadimgi Termiz, Ayritom, Fayoztepa, Qoratepa kabi yodgorliklar keltirib o’tilgan va undagi ibodatxonalar, diniy qarashlarga alohida to’xtalib o’tilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Kushon podsholigi asoschilari bo’lgan yuechji (Xitoy manbalarida) qabilasi Sirdaryo ortidan Baktriyaga yerlariga kelib, sak qabilalarini yengan hamda Yunon-Baqtriya yerlarini egalladilar. Natijada bir asr mobaynida Yunon-Baqtriya yerlarida yashagan qabilalar 5 qabilaga bo’linib, istiqomat qilishgan. Milodiy I asrda esa kushon qabilasidan bo’lgan Kudzula Kadfiz “Kushon” podsholigiga asos soldi. Kushon podsholigi davrida bir hududda turli dinlar amalda bo’lgan. Saltanatda dinlar o’rtasida o’zaro tenglik siyosati olib borib, shahar aholisi podsholikning bag’rikenglik an’analariga muvofiq, zardushtiylik, buddaviylik, manixeylik va boshqa dinlarga sig’inganlar. Shuningdek, Kushon hukmdorlari hind e’tiqodlaridan buddaviylik, vishnuizm, jaynizm kabi oqimlarni yoyilishiga homiylik qilganlar. Xorazm va Sug’dda esa mahalliy ta’limotlardan Siyovush e’tiqodi ham keng yoyilgan. Podsholikda siyosiy hokimyat ruhoniylar qo’lida bo’lib, dunyoviy davlat rahbari bosh kohin ham hisoblangan. Barcha diniy sohadagi islohotlar asoschisi ham davlat rahbari hisoblangan. Podsholikdagi bir qancha islohotlar asoschisi sifatida Kanishka e’tirof etilib, u hukmron bo’lgan davrda Kushon davlati ravnaq topdi. Davlatda buddizm ta’limotini keng yoyilishi davlat tarkibiga Shimoliy Hindistonni qo’shib olinishi bilan tasniflanadi. Hukmdor Kanishka buddizm tarixida birinchi marta diniy yig’inlar chaqirishni joriy etib, dastlabki diniy yig’inda buddaviylikning mahayana oqimini rasmiy oqim sifatida e’tirof etdi. Aynan shu tarixiy jarayondan so’ng ushbu ta’limot podsholikda juda tez sur’atlarda yoyila boshladi.



Shuningdek, Kanishka barcha dinlarga erkinlik bergan holda, buddaviylik ibodatxonalarini qurishga ular uchun katta miqdorda mablag ajratishga homiylik qilgan. Kanishka nafaqat adolatli hukmdor, shuning barobarida adabiyot va san'at homiysi ham hisoblangan. Manbalarda Kanishka Kashmirda Kanishkapur shahriya asos solganligi, Pareva, Vasumitra kabi buddaviy olimlar hamda Ashvagxosha, Vagarjuva, Matricheta kabi faylasuf va shoirlar hukmdor saroyida yashaganligi qayd etiladi.² Boshqa bir tarixiy manbalarda milloddan avvalgi I asrdayoq Baktriya aholisi buddaviylik g'oyalari bilan tanish bo'lganligi va Kushon davlati tashkil topgan bir davrda bu hududda Hindistondan kelgan budda missionerlaridan iborat yirik buddaviylik koloniyalari mavjud bo'lganligi borasida fikrlar mavjud. Arxeologik izlanishlar podsholik davrida zarb etilgan ba'zi tangalarning orqa tomonida zartushtiylik ilohi Mitra, otashparastlik ilohi Otash (olov ma'budi) ham tasvirlanganligini ko'rsatadi. Kushon podsholigi tarixiga oid yana bir manbalarda bu podsholik hukm surgan davr tangalarining oldi tarafida o'z dinlarining ilohlari, ikkinchi bir tarafida boshqa e'tiqodlarning ilohlari tushirilib, zarb etilganligi qayd etiladi. Ushbu topilmalar podsholikda diniy bag'rikenglik g'oyalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini, davlatdagi e'tiqodiy hayot kayfiyatini ifodalab beradi. Chunki, zarb etilgan tangalar davlatning milliy ramzi hisoblanib, unda davlatning orzu-istaklarri, maqsadlari tasvirlanadi. Xatto, davlat tangalarida yunon ilohlaridan Zevs va Gelios kabi ilohlar tasviri tushirilgan tangalar ham topilgan. Xorazm va Sug'dda mahalliy ta'limotlardan Siyovush e'tiqodi ham keng yoyilgan. Buddaviylik nafaqat diniy ishonch sifatida, balki, madaniyat va san'atning yorqin ko'rinishi sifatida ham namoyon bo'ldi. Qoratepadan topilgan o'nta yer osti va yer ustiga qurilgan ibodatxona majmualari va mahobatli monastir binolari ham bu ta'limotni xalqning madaniyati, san'ati bilan uyg'unlashganini ko'rsatadi. Ushbu yangi ta'limot O'rta Osiyo xalqlari hayotidan muhim o'rin oldi. Marosimlar va madaniyatda eng nozik, murakkab san'at asarlarini vujudga keltirishga xizmat qildi. Kushon san'ati shunisi bilan harakterliki, u hind, yunon, rim,

² Z.Husniddinovning "O'zbekistonda diniy bag'rikenglik"



shuningdek, baktريا madaniyatlarining qorishmasi mahsulidir.³ Termiz ibodatxonalari Kushon davrida shimoliy Baqtriyaning eng katta ibodatxonasi Qadimgi Termiz shahri yaqinida bo'lgan. Shu bilan birga Termizdagi ibodatxona qoshida budda dining voislari tahsil olishgan. Ular bu yerda budda ta'limotini mukammal o'rganganlar. Termizdan Draxmamitra ismli mashhur kohin yetishib chiqqan. Yana bir targ'ibotchi Gxoshaka hisoblanadi. U Peshovarda buyuk Kushon shohi Kanishka uyishtirgan budparastlar yig'ilishda ishtirok etgan. Termiz ibodatxonalari hozir Qoratepa nomi bilan bog'liq. Mana yigirma yilga yaqindir-ki, Qoratepa arxeologi B.Ya.Stavskiy rahbarligida arxeologik tadqiqotlar keng miqyosda olib borilgan. 1968-yil Qoratepa ibodatxonasidan 2-3 km shimoli-sharqda buddistlarning yana bir ibodatxonasi topilgan. Uning topilishi Baqtriyada buddizmni o'rganishda muhim bir manba bo'ldi. Bu ibodatxona fanda Fayoztepa nomi bilan ma'lumdir. Fayoztepa arxeologik jihatdan to'liq o'rganilgan hudud hisoblanadi. Tekshirishlar natijasida Fayoztepadan vixara turidagi ibodatxona topilgan. Qoratepa bilan Fayoztepaning tadqiqotlaribizga budda dini bilan bog'liq bo'lgan me'morchilik inshootlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beribgina qolmay, u budda dining O'rta Osiyoda xususan Baqtriyada tarqalishi yo'llari buddizm g'oyalari bilan sug'orilgan san'at, Baqtriya tili, yozuvlari haqida fikr yuritishga imkoniyat yaratdi.⁴

XULOSA. Kushon davlati haqida gapirganda, uning diniy tolerantligi ham o'ziga xos o'rin tutadi. Kushon davlati, miloddan avvalgi II-I asrlarda O'rta Osiyo va Hindistonda katta hududni egallagan, va bu mintaqada turli dinlar va madaniyatlar aralashgan hudud bo'lgan. Kushon imperiyasida yashagan xalqlar, jumladan yunonlar, buddalar, zardushtchilar, va yahudiylar birgalikda turli diniy e'tiqodlarda yashagan. Kushonlar, ayniqsa, buddizmni qabul qilishda muhim rol o'ynagan. Biroq, ular boshqa dinlarni ham hurmat qilishgan va turli madaniyatlarning uyg'un yashashiga imkon yaratganlar. Diniy tolerantlik, o'z

³ Ata-Mirzayev, O.Gentshke, V.Murtazayevaning "Межнациональная толерантность в Узбекистане: история и современность"

⁴ Shokir Pidayevning "Sirli Kushon saltanati". Toshkent-1990



navbatida, Kushon davlatining ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lgan. Kushon imperiyasidagi diniy o'zaro hurmat va tinchlik, o'zaro madaniy va diniy aloqalar orqali ham kuchaygan. Shu sababli, Kushon davlati diniy tolerantlikning amaliy namunasini ko'rsatgan, bu esa o'sha davrda turli din va e'tiqodlarga hurmat ko'rsatishning ahamiyatini anglatadi. Bu hozirgi kunda ham diniy bag'rikenglik va tinchlikni ta'minlashda o'rganish uchun muhim bir misol bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bozorova Sevaraxon Qobiljonovna “Kushon podsholigi davrida diniy bag’rikenglik”. 2021-yil maqola.
2. Z.Husniddinov “O’zbekistonda diniy bag’rikenglik”. “Toshkent Islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi-2015
3. Ata-Mirzayev, O.Gentshke, V.Murtazayeva “Межнациональная толерантность в Узбекистане: история и современность”. Toshkent “Universitet”-2004
4. Shokir Pidayev “Sirli Kushon saltanati”. Toshkent-1990
5. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
6. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME’MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.



9. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.
10. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
11. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO 'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
12. Begaliyev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
13. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
14. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
15. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
16. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.